



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

FOZIL YO‘LDOSH O‘G‘LI DOSTONLARIDA QO‘LLANILGAN O‘XSHATISHLARNING TUZILMAVIY TARKIBI VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Abdukarimova Hulkar Sobir qizi
Termiz davlat universiteti, magistrant

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘xshatish tasvir vositasining til tizimidagi o‘rni hamda uni tarkib toptiruvchi komponentlar tahlil qilinadi. Har bir unsurning o‘xshatishni yuzaga keltirishdagi ishtiroki darajasi ko‘rsatib beriladi. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li dostonlaridagi o‘xshatishlarning tuzilmaviy tarkibi va grammatik jihatlari yoritilib, ushbu badiiy konstruksiyaning dostonlar tilidagi lingvopoetik xususiyatlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: doston, o‘xshatish, “Malika ayyor”, “Rustamxon”, subyekt, etalon, asos, vosita, o‘xshatma belgi, o‘xshovchi obraz, old o‘rinli o‘xshatish, so‘ng o‘rinli o‘xshatish, to‘liqsiz o‘xshatish, komponent.

СТРУКТУРНЫЙ СОСТАВ И ГРАММАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СРАВНЕНИЙ В ДАСТАНАХ ФОЗИЛА ЙУЛДОШ ОГЛЫ

Абдукаримова Хулкар Собир кизи
Термезский государственный университет, магистрант

Аннотация

В статье анализируется место сравнений как изобразительного средства в языковой системе, а также компоненты, формирующие данное явление. Показана степень участия каждого элемента в формировании сравнения. Освещаются структурный состав и грамматические особенности сравнений в дастанах Фозила Йулдош оглы, а также раскрываются их лингвопоэтические характеристики.

Ключевые слова: дастан, сравнение, «Малика айёр», «Рустамхон», субъект, эталон, основа, средство, признак сравнения, образ сравнения, предпозиционное сравнение, постпозиционное сравнение, неполное сравнение, компонент.

STRUCTURAL COMPOSITION AND GRAMMATICAL FEATURES OF SIMILES IN THE EPICS OF FOZIL YULDOSH OGLI

Abdukarimova Hulkar Sobir qizi
Termez State University, 2nd Year Master’s Student

Abstract

This article analyzes the role of simile as a figurative device in the language system and examines the components that constitute it. The degree of participation of each element in forming a simile is demonstrated. The structural composition and grammatical features of similes in the epics of Fozil Yuldosh ogli are explored, and the linguopoetic characteristics of this artistic construction in epic language are revealed.

Keywords: epic, simile, “Malika ayyor,” “Rustamxon,” subject, standard, basis, means, feature of comparison, image of comparison, preposed simile, postposed simile, incomplete simile, component.

Insonning dunyoni bilishida o‘xshatish-qiyoslash benihoya katta o‘rin tutadi. Ikki yoki undan ortiq predmet yoki tushunchaning o‘xshash yoki farqli jihatlarini aniqlash maqsadida qiyoslash, taqqoslash tashqi dunyoni bilishning eng keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biri sifatida inson faoliyatining barcha sohalarida kuzatiladi. Bu behad muhim mantiqiy kategoriya, tabiiyki, tilda ham o‘z aksini topadi [6; 19–24-b.]. O‘xshatishning mazmun-mohiyati ba’zi manbalarda shunday ta’riflanadi: “U ikki narsa yoki hodisa o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to‘laroq, aniqroq, bo‘rttiribroq ko‘rsatib beradi” [12; 294-b.].

Dostonlar tilida eng faol qo‘llangan tasvir vositalaridan biri o‘xshatish hisoblanadi. Qadimgi hind eposi poetikasi, xususan, o‘xshatishlarning tabiati va tarkibini o‘rgangan rus tilshunosi S.L. Nevelova o‘xshatishlarning to‘rt unsuridan tashkil topishini ta’kidlaydi: 1) o‘xshatilayotgan narsa — subyekt, 2) o‘xshayotgan narsa — obyekt, 3) o‘xshatish belgisi — asos, 4) o‘xshatishning formal ko‘rsatkichi — vosita [8; 38-b.]. O‘zbek tilshunosligida o‘xshatishlar bo‘yicha dastlabki tadqiqotni olib borgan M. Mukarramov o‘xshatishda uch komponent — o‘xshatiluvchi obyekt, o‘xshovchi obraz, o‘xshatma belgi e’tiborga olinishi kerak, deb hisoblaydi. Shuningdek, u o‘xshatiluvchi obyekt bilan o‘xshovchi obraz o‘xshatishning sharti ekanligini, ulardan birining tushirib qoldirilishi o‘xshatishning umuman ifodalanmasligiga sabab bo‘lishini aytadi. O‘xshatish ifodalovchi vositalarni leksik ma’no anglatmaganligi uchun komponentlar tarkibiga qo‘shmaydi [7; 6–7-b.]. O‘xshatishlarni o‘rgangan olim D. Xudoyberganova uning to‘rt tarkibdan iboratligini, ba’zi holatlarda uslub nuqtayi nazaridan bu komponentlardan biri ifodalanmasligini va buning sababi undagi ma’no boshqa qismlar yordamida anglanishini ta’kidlaydi [10; 30-b.]. O‘zbek tilshunos olimlaridan yana biri N. Mahmudov o‘xshatishlarni o‘xshatish subyekti, o‘xshatish etaloni, o‘xshatish asosi va o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichidan tashkil topishini qayd etadi [5; 5-b.].

O‘xshatishni tahlil qilish jarayonida ixcham va tushunarli bo‘lishi, shuningdek, chalkashlikka yo‘l qo‘ymaslik maqsadida komponentlarni quyidagicha nomlashni lozim topdik: 1) o‘xshatilayotgan narsa — subyekt, 2) o‘xshayotgan narsa — etalon, 3) o‘xshatish asosi — belgi, 4) o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi — vosita. Masalan: **Tishlari guruchday oq qiz** (“Malika ayyor”: 176). Bu yerda subyekt — *tishlari*, etalon — *guruch*, belgi — *oq*, vosita — *-day*.

O‘xshatish tarkibidagi birinchi unsur — o‘xshatilayotgan narsa, ya’ni subyekt. U o‘z nomi bilan ham o‘xshatishning asosini bildiradi, chunki agar subyekt bo‘lmasa, matnda unga o‘xshash bo‘lgan narsaga ham ehtiyoj bo‘lmaydi. O‘xshatilayotgan narsa bilan birga keladigan etalonning vazifasi u ifodalayotgan shaxs, predmet, voqea, harakat va holatni yanada aniq tasvirlash, unga diqqat-e’tiborni tortishdir. Bu ikki komponent har ikkisi uchun ham tegishli bo‘lgan belgi asosida morfologik, leksik-morfologik vositalar yordamida bog‘lanadi va o‘xshatishni yuzaga keltiradi.


Ba’zan o‘xshatish subyekti tushib qoladi va u o‘xshatishning umumiy mazmunidan yoki matndan sezilib turadi: **So‘zingni eshitib o‘tday kuyaman** (“Rustamxon”: 27); **Badbaxt devlar o‘ldik, deydi, / Toza guldek so‘ldik, deydi** (“Malika ayyor”: 245). Birinchi misolda o‘xshatma belgi vazifasida kelgan *kuyaman* so‘zi tarkibidagi shaxs-son qo‘shimchasidan subyekt birinchi shaxs — *men* ekanligi, ikkinchi misolda esa umumiy matndan subyekt *devlar* ekanligi ma’lum bo‘ladi.

O‘xshatilayotgan narsa olmosh yoki otlashgan son bilan ifodalanganda uning ma’nosi matn va o‘zidan oldin kelgan jumladagi shaxs, predmet hamda birikma ko‘rinishidagi voqea, harakat-holatga qarab anglashiladi: **Ikki polvon shu maydonga kiradi, / Ajdahorday ikkovi ishqiradi** (“Malika ayyor”: 195); **Ikkovi o‘t qo‘ydi devga barobar** (“Malika ayyor”: 206); **Ikkovi ham ko‘ring misoli ajdar** (“Malika ayyor”: 211); **Shu vaqtda sen turgin daryoday toshib** (“Malika ayyor”: 240); **Tozilar kirgandan keyin, ingranib birovning tovushi chiqqanday bo‘ldi. Oftoboy aytdi: “Bu tirik odamning tovushiday...”** (“Rustamxon”: 121).

O‘xshatish subyekti, asosan, ot, otlashgan so‘zlar va olmoshlar bilan ifodalanadi. U

egalik qo‘shimchalarini oladi va ko‘pincha bosh kelishikda bo‘lib, gapda ega vazifasida keladi: **Shozargar, Avaxxon, Mahmudxonlarning ko‘zlari moshday ochilib qoldi, hamma devlardan qutulib qoldi, bularning boshidan g‘ubor ko‘tarildi, ko‘zlari yorug‘ bo‘ldi** (“Malika ayyor”: 263). Ba’zida to‘ldiruvchi bo‘lib kelgan o‘rinlarni ham ko‘rish mumkin: **Olmaday so‘ldiray gulday yuzingni** (“Malika ayyor”: 79); **Qoshingni o‘xshatdim egilgan yoyga** (“Rustamxon”: 43).

Fozil shoir dostonlarida bir xil o‘xshatishdan bir nechta subyekt uchun foydalanganligini ham kuzatdik: **...yoyning o‘qi yashinday bo‘lib oqib ketdi** (“Malika ayyor”: 5); **Qoratulpor yashinday bo‘lib oqib ketdi** (“Malika ayyor”: 162); **Yashindayin oqib borar Bo‘ztulpor** (“Malika ayyor”: 187). Misollarda *o‘q*, *Qoratulpor*, *Bo‘ztulpor* so‘zlari subyekt bo‘lib kelgan.



O‘xshatish tarkibidagi ikkinchi unsur — o‘xshayotgan narsa, ya’ni etalon. Uning nomidan ham ma’lumki, etalon subyekt xususiyatlarining ramziy jamlanmasi hisoblanadi. O‘xshatish konstruksiyasidagi boshqa qismlar yashirin ifodalana olgani holda, o‘xshayotgan obrazning har doim leksik ifodaga ega bo‘lishi talab etiladi. Bu komponentning o‘ziga xos xususiyatini N. Mahmudov shunday ta’riflaydi: “Bu unsur o‘xshatishning markazini, mag‘zini tashkil etadi, boshqa unsurlar (o‘xshatish subyekt, o‘xshatish asosi) ayni shu etalon atrofida birlashadi. Ayni paytda boshqa unsurlar implitsit ifodalana bilgani holda, o‘xshatish etaloni faqat eksplitsit ifodalanmog‘i shart, ya’ni o‘xshatish etaloni bevosita lisoniy ifodaga ega bo‘lmasa, o‘xshatish mazmunidagi ibora shakllana olmaydi. Eng muhimi shuki, xalqning dunyoni ko‘rishi va anglashidagi o‘ziga xoslik, ya’ni milliy-madaniy va milliy-konnotativ ma’lumot bevosita ayni shu o‘xshatish etalonida o‘z tajassumini topadi. Xalqning milliy obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida turg‘unlashgan, etalonlashgan obrazlar milliy idrokni aks ettiradi” [6; 4-b.].

Bundan kelib chiqadiki, obrazli tafakkur tarzining mahsuli etalon hisoblanadi va xalqning dunyoni qanday ko‘rishi ayni shu etalonda aks etadi. Matnning lingvopoetik tadqiqi bilan shug‘ullangan M. Yo‘ldoshevning fikri ham e’tiborga molik: “Har qanday o‘xshatishning lingvopoetik asosini bevosita o‘xshatish etaloni tashkil etadi. Tasviriy vosita sifatidagi o‘xshatishning poetik qimmat, estetik salmog‘ini ham xuddi shu o‘xshatish etaloni belgilaydi. O‘xshatishning originalligi ayni o‘xshatish etalonining originalligiga ko‘ra yuzaga keladi” [3; 58-b.].

Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li dostonlaridagi etalonlar ham matnda badiiy bo‘yoqdorlikni, obrazlilikni ta’minlash maqsadida tanlab olingan. Dostonlarda etalonlar, asosan, ot, otlashgan so‘z va so‘z birikmalari bilan ifodalanganligini ko‘rish mumkin. Bunga sabab otlarning o‘zida belgi va xususiyatlarni jamlay olishidir. Biz o‘rgangan dostonlarda etalonning quyidagi gap bo‘laklari vazifasida kelganligi aniqlandi: ega — **“O‘zbakning chivindayi ham do‘qchil bo‘ladi, do‘qidan qo‘rqma”, — deb edi** (“Malika ayyor”: 29); kesim — **Ular momaning afti-jasadini ko‘rdi, shunday: manglaylari cho‘tday, ko‘zlari o‘tday, jag‘ining go‘shiti qochgan, yon yog‘idan tarlon ochgan, yaxshilikdan mudom qochgan** (“Rustamxon”: 12); to‘ldiruvchi — **Qoshingni o‘xshatdim egilgan yoyga** (“Rustamxon”: 43); aniqlovchi — **Choqladi Avazni qorday to‘shidan** (“Malika ayyor”: 23); hol — **...yoyning o‘qi yashinday bo‘lib oqib ketdi, tosh tablani teshib o‘tdi** (“Malika ayyor”: 5). Demak, etalon barcha gap bo‘laklari vazifasida kela olish xususiyatiga ega.

Dostonlarda etalon sifatida tanlangan soʻzlar xalq dostonlariga xos ritmik ohangdoshlikni taʼminlab, badiiy adabiyotdagi sajʼ — ichki qofiyani yuzaga keltirgan: **Soqi Gʻirotning qoshiga borsa, xonning Gʻiroti sagʻrisi toshib, yoli qulogʻidan oshib, uchadigan qushday, quloqlari qamishday, har koʻzi tarkashday boʻlib, yulduzni koʻzlab, taraqqos boylab, oʻynab turibdi** (“Malika ayyor”: 14); **Ular momaning afti-jasadini koʻrdi, shunday: manglaylari choʻtday, koʻzlari oʻtday, jagʻining goʻshti qochgan, yon yogʻidan tarlon ochgan, yaxshilikdan mudom qochgan** (“Rustamxon”: 12).


Fozil shoir dostonlarda atoqli otlardan ham etalon sifatida foydalangan: **Yusuf kabi meni solma zindona, / Zulayho nishonim, qaydan boʻlasan?** (“Malika ayyor”: 7); **Tillaqizning ham Malika ayyorning Qoratulporiday bir Boʻztulpori bor edi** (“Malika ayyor”: 175); **Rustamday boʻp ish koʻrsatib koʻradi, / Kim roʻpara boʻlsa, tayin oʻladi** (“Malika ayyor”: 205); **Yaxshi kunim, tunim qora, / Yuragim boʻlib sadpora, / Mansurday osdilar dora, / Yoʻqdir xaridorim mening** (“Malika ayyor”: 251).

Baʼzi oʻrinlarda izofali birikmalar ham oʻxshatish etaloni boʻlib kelgan: **Qirq zinapoya pastga tushib ketdi, bir katta — misli shahri azimday yerga bordi** (“Malika ayyor”: 107); **Rustami dostoncha bordir quvvating** (“Rustamxon”: 44); **Gʻaribi Goʻriston boʻlib oʻladi** (“Malika ayyor”: 158).

M. Mukarramov oʻxshatish komponentlarida oʻxshovchi obrazning oʻrinlashishiga koʻra ularni ikki guruhga ajratadi: 1) old oʻrinli oʻxshatishlar, 2) soʻng oʻrinli oʻxshatishlar [7; 8-b.].

Old oʻrinli oʻxshatishlarda etalon subyektdan oldin keladi: **Minib yurgan chigirtkaday oting bor** (“Malika ayyor”: 29); **Alifday qomating, xipcha belingdan** (“Rustamxon”: 70); **Avaz kelgan boʻlsa, bizlarning jonday jiyanimiz kelgan ekan** (“Malika ayyor”: 82); **Choqladi Avazni qorday toʻshidan** (“Malika ayyor”: 23); **Qumursqaday soning bor, jasading bor** (“Malika ayyor”: 29). Bunday oʻxshatishlardan koʻzlangan maqsad oʻquvchi diqqat-eʼtiborini belgiga qaratishdir. Bu turdagi oʻxshatishlarda, asosan, *-day/-dek* affikslari ishtirok etadi. Dostonlarning sheʼriy misralarida etalon inversiyaga uchragan. Bu bir tomondan ritmik ohangdoshlikni taʼminlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan belgining yaqqol yuzaga chiqishiga sabab boʻlgan: **Yaproqday titraydi qalandar joni, / Men qalandar, biling, Oqtoshning xoni** (“Rustamxon”: 132); **Yashinday boʻp yoyning oʻqi yogʻadi, / Qirq gaz oʻqdan baland sachrab oʻtadi** (“Malika ayyor”: 23); **Daryoday boʻlib qonlar oqdi, / Yomon devlar oʻlib qoldi** (“Malika ayyor”: 244).

Soʻng oʻrinli oʻxshatishlarda etalon subyektdan keyin keladi. Shoir dostonlarida oʻxshatishlarning asosiy qismini shu turdagi oʻxshatishlar tashkil etadi: **Goʻroʻgʻli marddi, gʻayrati gʻayratga yetdi, achchigʻi chillali qishday murtiga chappa qaytdi** (“Malika ayyor”: 4); **Seni mingan beklar daryoday toshdi** (“Malika ayyor”: 15); **Tishi gavhar durday boʻlib** (“Rustamxon”: 104); **Kampir tariqday tirqirab ketdi** (“Rustamxon”: 115). Ushbu oʻxshatishlarda diqqat-eʼtibor avval subyektga qaratiladi. Soʻng subyekt xususiyatlariga xos etalon tanlanadi. Soʻng oʻrinli oʻxshatishlarni *kabi, singari, yangʻligʻ, misoli, misli, oʻxshatmoq, mengzamoq* elementlari ham yuzaga chiqaradi: **Ikkovi ham koʻring misoli ajdar** (“Malika ayyor”: 211); **Qoshingni mengzadim egilgan yoyga** (“Malika ayyor”: 228); **Jasading oʻxshaydi boʻz qarchigʻayga** (“Rustamxon”: 43).



Oʻxshatishlarning shunday turi ham borki, ularda ikki va undan ortiq oʻxshatish etaloni ishtirok etadi. Buni dostonlardan olingan quyidagi misollarda koʻrish mumkin: **Olmadayin**

soʻlgan, gulday tarzim bor (“Malika ayyor”: 57); Gulday yuzim zaʼfaronday sargʻayib (“Rustamxon”: 72); ...Boʻztlporning koʻzi Qoratulporga tushib, guldirab kishnab yubordi. Xuddi yer qimirlab, osmon yorishganday boʻlib ketdi (“Malika ayyor”: 189); Arqiragan erday boʻlib, / Togʻda aqirgan sherday boʻlib, / Bordi devlarning ustiga (“Malika ayyor”: 204); Gulqizoyman birga turgin, / Uchoving ham birday boʻlib, / Yangi ochilgan gulday boʻlib, / Behishtdagi hurday boʻlib (“Malika ayyor”: 273). Ketma-ket oʻxshatishlarda oʻxshovchi obrazlar birdan ortiq boʻlib, bir oʻxshatiluvchi obyektни har tomonlama aniqlash, oydinlashtirish va tiniqlashtirishga qaratiladi [7; 32-b.]. Bu xildagi oʻxshatishlarni oʻxshatishning kengaytirilgan shakli [11; 46-b.] sifatida talqin qilish mumkin.

Oʻxshatish tarkibidagi uchinchi unsur — oʻxshatma belgi, yaʼni asos. Bu komponent subyekt va etalon oʻrtasidagi oʻxshatishga asos boʻlgan umumiy belgi hisoblanadi. Shuning uchun ham u koʻpincha sifat, sifatdosh, ravishdosh, sof feʼl bilan ifodalanib, belgi, xususiyat, harakat va holatni bildirib keladi.

Oʻxshatish komponentlaridagi oʻxshatma belgining leksik birliklar bilan ifodalanishi yoki ifodalanmasligiga qarab, ularni toʻliq va toʻliqsiz oʻxshatishlarga ajratish mumkin [7; 7-b.].

Oʻxshatish tarkibidagi uchta unsur — subyekt, etalon va oʻxshatma belgi leksik birliklar bilan ifodalansa, u toʻliq hisoblanadi. Yana ham aniqroq aytiladigan boʻlsa, oʻxshatma belgi oʻzining shakliy koʻrsatkichiga ega boʻlishi talab qilinadi: **Qizilgulday ranglaringni soʻldirib, / Olloh, Shoqalandar, sendan kuydim-da** (“Malika ayyor”: 248); **Boʻgʻinlarim tol-tol boʻshab, / Xazon boʻlgan gulga oʻxshab** (“Malika ayyor”: 252); **Bek Goʻroʻgʻli shuytib daryoday toshdi, / Shu toʻyning bayrami haddidan oshdi** (“Malika ayyor”: 300); **Qushday uchar piroqti** (“Rustamxon”: 41); **Qoshingni oʻxshatdim egilgan yoyga** (“Rustamxon”: 43); **Qarasa, ajdahor togʻning tangisidan koʻzi olovday yonib, ishqirib, har tarafga oʻt sohib, Charxin koʻlga suvga tushib kelayotgan ekan** (“Rustamxon”: 74). Dostonlardan keltirilgan ushbu misollarda har bir belgi leksik birlik orqali ifodalangan oʻz shakliy koʻrsatkichiga ega. Bular ravishdosh (*soʻldirib, yonib, ishqirib*), sifatdosh (*xazon boʻlgan, egilgan*), sof feʼl (*toshdi, uchar*) shakllaridir. Sifatdosh bilan ifodalangan *xazon boʻlgan, egilgan* kabi leksemalar etalonning sifatlovchisi boʻlib kelgan.

Oʻxshatma belgi leksik birliklar bilan ifodalanmasa, u toʻliqsiz oʻxshatish hisoblanadi. Bunday oʻxshatishlarda oʻxshatishga asos boʻlgan belgi etalonning maʼnosidan anglashiladi. Masalan: **Qumursqaday jasading bor** (“Malika ayyor”: 29); **Minib yurgan chigirtkaday oting bor** (“Malika ayyor”: 29); **Tillaqizning ham Malika ayyorning Qoratulporiday bir Boʻztlpori bor edi** (“Malika ayyor”: 175); **Oti Rustam, oʻzi misli ajdahor, / Ishqirganda boʻlmas dushman barobar** (“Rustamxon”: 54); **Alifday qomating, xipcha belingdan** (“Rustamxon”: 70). Misollarni tahlil qiladigan boʻlsak, belgi ifodalovchi qismning vazifasi etaloga koʻchgan. Chunki oʻxshovchi obraz oʻzida belgi-xususiyatlarni jamlagan. *Chivin* soʻzi orqali “zaiif”, “kuchsiz”; *chigirtka* soʻzi orqali “kichkina”; *Qoratulpor* soʻzi orqali doston voqealari davomida maʼlum boʻlgan unga xos xususiyatlar; *ajdahor* soʻzi orqali “kuchli”; *alif* soʻzi orqali “toʻgʻri”, “tik” maʼnolari anglashiladi. Toʻliqsiz oʻxshatishlarni toʻliq oʻxshatishlarga aylantirish ham mumkin. Masalan: **Alifday qomating — Alifday tik qomating** kabi.

Baʼzan oʻxshatish tasvir vositasi subyekt va etalon oʻrtasidagi oʻxshash belgiga emas, balki harakat yoki holatga asoslanib yuzaga chiqadi. Dostonlarda ham shu kabi misollar mavjud: **...shu vaqtda Huroyim Rustamni koʻrib qoldi. Dunyoga qaytadan kelganday boʻldi** (“Rustamxon”: 59); **Yangigina birov kelib ketganday, yaxshi koʻrpachalar tashlangan, har turli anjomlar tayyor qilingan** (“Rustamxon”: 66); **Bu joy bizniki deb, yo dev, yo odamzod kelmadi, oʻzlarining hovlisiday boʻlib qoldi** (“Rustamxon”: 68).

Oʻxshatish tarkibidagi toʻrtinchi unsur — oʻxshatishning shakliy koʻrsatkichi, yaʼni vosita. Darhaqiqat, u oʻxshatishni shaklan yuzaga chiqaradigan, koʻrsatadigan vosita hisoblanadi. Vosita oʻxshatish konstruksiyasidagi oʻxshatish munosabatini shakllantiruvchi leksik, grammatik, stilistik va semantik elementlar yigʻindisidan tashkil topuvchi uzv sanaladi [1; 55-b.].

Tadqiq jarayonida Fozil shoirning “Malika ayyor” va “Rustamxon” dostonlarida o‘xshatishni yuzaga chiqarishda quyidagi vositalardan foydalanganligi aniqlandi:

a) affiksalar: *-day/-dek, -dayin, -day bo‘lib, -dayin bo‘lib, -cha, -larcha;*
 b) yordamchi so‘zlar: *kabi, go‘yoki, xuddi, misoli, misli;*
 c) leksik vositalar: *bilan barobar, barobar, bo‘lmoq, changal, bilak, boqish, surat, yurak;*
 d) morfologik-leksik vositalar: *-ga o‘xshamoq, -ga mengzamoq, -ga keladi, -ni qildi.*

Affiksalar o‘xshatishda o‘xshovchi obraz, ya‘ni etalonga qo‘shilib keladi. Dostonlarda eng ko‘p qo‘llangan o‘xshatishni yuzaga keltiruvchi vosita *-day/-dek* qo‘shimchasi hisoblanadi. Bu affiks *teng* so‘zining ma‘nosini anglatadi. A.N. Kononov ham *-day/-dek* affikslarining *teng* so‘zidan kelib chiqqanini, rus tilidagi *количество, равный, одинаковый* so‘zlariga to‘g‘ri kelishini ta‘kidlagan [4; 285-b.]. *-day/-dek* tenglashtirish munosabatini ifodalaganligi uchun dostonlarda ham predmet va hodisalar o‘rtasidagi xilma-xil o‘xshashliklarni qiyoslay oladi. Masalan, holat — **Terak yaprog‘iday titraydi kofir** (“Malika ayyor”: 196); harakat — **Kallalar kaptarday uchdi** (“Malika ayyor”: 211); ovoz — **Tulpor boradi yo‘l boshlab, / Chopganda ajdahorday vishillab** (“Malika ayyor”: 188); rang — **Men turibman, o‘laman deb mug‘ayib, / Gulday yuzim za‘faronday sarg‘ayib** (“Rustamxon”: 72); maza-ta‘m — **Labing so‘rsa, bolday bo‘lib** (“Malika ayyor”: 273); belgi — **Choqladi Avazni qorday to‘shidan** (“Malika ayyor”: 23); predmetning bir butun ko‘rinishi — **“Ajdahor avragan kishini, harchand qayt, degan bilan qaytmay, ko‘ziga qizday ko‘rinib qaytmaydimish” degan gap bor edi** (“Rustamxon”: 97).

- *-day/-dek** affiksining *-dek* varianti dostonlarda faqat bir o‘rinda kelganini kuzatdik: **Badbaxt devlar o‘ldik, deydi, / Toza guldek so‘ldik, deydi** (“Malika ayyor”: 245). *-day* variantining *-dek* variantiga nisbatan ko‘p qo‘llanishini dostonlar tiliga xoslik, she‘riy misralardagi ohangdoshlik va shoirning so‘zlashuv tili bilan bog‘lash mumkin.
- *-day/-dek** affiksining qadimiy shakllaridan bo‘lgan *-dayin* varianti ham dostonlar tilida faol qo‘llangan. Dostonlar tilida bu vosita 28 o‘rinda o‘xshatish hosil qilgani aniqlangan bo‘lsa, shundan 1 tasi “Rustamxon” dostoniga to‘g‘ri keladi: **G‘am bilan sarg‘aydi guldayin diydor** (“Rustamxon”: 134). Shuningdek, **Qolarsan-da ko‘rmagandayin bo‘lib** (“Rustamxon”: 140) gapidagi o‘xshatishda vosita *-dayin + bo‘lib* shaklida kelgan va bu shakl dostonlarda faqat shu o‘rinda uchraydi. *-dayin* affiksi *daryo, gul, olma, yashin, majnun, chiviq, loy, o‘q, sher, bulbul, o‘t* kabi etalonlarga qo‘shilgan: **Mavj urganda daryodayin tosharsan** (“Malika ayyor”: 8); **G‘am bilan sarg‘aydi guldayin diydor** (“Malika ayyor”: 89); **Loydayin chilpillab botib boradi** (“Malika ayyor”: 167); **Otgan o‘qdayin zirqirab** (“Malika ayyor”: 188).

Dostonlarda *-day + bo‘lib* shakli ham ko‘plab o‘rinlarda uchragan: **Kaltagi tariqday bo‘lib tirqirab ketdi** (“Malika ayyor”: 37); **O‘lik degan bog‘day bo‘lib, qiyrab yotibdi** (“Malika ayyor”: 53); **...kallasi kadiday bo‘lib, gapirishga dami chiqmay, ko‘zi bo‘zarib qola berdi** (“Rustamxon”: 58); **Ko‘p chalqigan ko‘lday bo‘lib** (“Rustamxon”: 103). Bu holatda o‘xshatishni, asosan, *-day* affiksi yuzaga chiqaradi, *bo‘lib* ravishdoshi esa ma‘noni to‘ldirish va aniqlashtirishga xizmat qiladi. Ravishdoshning qipchoq-o‘zbek shevasiga xos bo‘lgan *bo‘p/bo‘b* shaklining ham dostonlar tilida faol qo‘llanishiga sabab Bulung‘ur tumani aholisi nutqiga xos xususiyatlar va Fozil shoirning Bulung‘ur dostonchilik maktabi vakili bo‘lganidir. Bu holat dostonlar tilida o‘z aksini topgan: **Ayiqday bo‘p chinqirib** (“Malika ayyor”: 223); **Moxovday bo‘p bir burchakda o‘tirar** (“Malika ayyor”: 302); **Sherday bo‘b ot qo‘ydi jallod ustiga** (“Rustamxon”: 57).

- *-day/-dek** affikslari bilan yasalgan ba‘zi o‘xshatishlar vaqt o‘tishi bilan turg‘unlashadi va frazeologik birliklarga aylanadi. Dostonlardagi shunday o‘xshatishlardan misollar: **Podshobachcha qalandarlarini ko‘rib, otasini ko‘rganday bo‘lib... yuragi yorilguday bo‘lib, dodlab yig‘lab** (“Malika ayyor”: 227); **Avazxon bilsa, Malika uchun so‘ylaydi, shahzodaning boshini sapchaday uzar edi** (“Malika ayyor”: 252). Ayrim o‘xshatishlarning yuzaga kelishida esa ibora ishtirok etadi: **Ko‘rdingizmi, bir tog‘ni**

tolqon etgunday quvvati bor (“Rustamxon”: 48).

“Malika ayyor” va “Rustamxon” dostonlarida *-day/-dek* qo‘shilib keladigan shunday o‘xshatishlar ham borligi aniqlandiki, ularda subyekt ham, etalon ham ayni bir shaxs, predmet yoki joyning o‘zi bo‘ladi. Quyidagi misollarga diqqat qilaylik: **So‘rab borsang, Ko‘klamtog‘day tog‘i bor, / Ko‘klamtog‘da Boymoq devday devi bor** (“Malika ayyor”: 8); **Qo‘lingdan ketmasin Chambilday elat** (“Malika ayyor”: 11); **Ostimda irg‘iydi G‘irko‘kday tulpor** (“Malika ayyor”: 34); **Axtaraman Malikaday parini** (“Malika ayyor”: 92); **Qo‘lga tegib Malikaday gajakdor** (“Malika ayyor”: 161); **Vayron bo‘lib ketdi Oqtoshday shahar** (“Rustamxon”: 23); **Enam deb qayg‘irar Rustamday qo‘chqor** (“Rustamxon”: 40); **Sendayin yo‘lbarsni nobud qiladi** (“Rustamxon”: 72). Bularidan *Malikaday parini* birikmasini tahlil qilsak, ifodada Malikaga o‘xshash boshqa bir pari emas, aynan Malikaning o‘zi nazarda tutilgan. Demak, bu yerda o‘xshatish subyekti ham, o‘xshatish etaloni ham Malikaning o‘zi. Keltirilgan shaxs, narsa yoki joyni bo‘rttirib ko‘rsatish, unga diqqat-e‘tiborni tortish bu usulni qo‘llashning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Dostonlarda *-cha* affiksi 4 xil — *qiyomat, Rustam, chivin, o‘lmas* etalonlari orqali 7 o‘rinda o‘xshatish hosil qilib kelgan: **Qiyomatcha bo‘lar mardning savashi** (“Malika ayyor”: 46); **Urushli kun Rustamcha bor g‘ayrati** (“Malika ayyor”: 205); **Devlarni chivinchka ko‘rmay** (“Malika ayyor”: 214); **Rustami dostoncha bordir quvvating** (“Rustamxon”: 44); **Qiyomatcha bo‘lar mardning savashi** (“Rustamxon”: 79); **Chibincha yo‘q minib yurgan bedovlar** (“Rustamxon”: 96); **O‘lmascha ko‘rdingmi yolg‘iz ulingdi** (“Rustamxon”: 112).

- *-larcha** affiksi turli so‘zlarga qo‘shilib, shu so‘zlardan anglashilgan ma‘noning belgi, harakati va holatini o‘xshata oladi [7; 46-b.]. Qo‘shimcha faqat “Rustamxon” dostonida 2 marta qo‘llangani aniqlandi: **Yolg‘iz bolam tozilarcha bo‘lmadi** (“Rustamxon”: 56); **Yolg‘iz ulum qitmirlarcha bo‘lmadi** (“Rustamxon”: 56).

O‘xshatishni yuzaga keltiradigan yordamchi so‘zlarga ko‘makchi va yuklamalar kiradi. Ko‘makchilar etalondan keyin, yuklamalar esa oldin keladi. Dostonlardagi o‘xshatish tarkibida *kabi, go‘yoki, xuddi, misoli, misli* singari yordamchilar ishtirok etgan. Bular orasida boshqa yordamchilarga nisbatan *misli* yuklamasining qo‘llanish chastotasi yuqoriroq bo‘lib, 6 o‘rinda kelgan. Qolgan yordamchilarning barchasini bir martadan uchratish mumkin: **Yusuf kabi meni solma zindona** (“Malika ayyor”: 7); **Go‘yoki osmondan yashin tushganday bo‘ldi** (“Malika ayyor”: 160); **Xuddi yer qimirlab, osmon yorishganday bo‘lib ketdi** (“Malika ayyor”: 189); **Ikkovi ham ko‘ring misoli ajdar** (“Malika ayyor”: 211). Shuningdek, *go‘yoki, xuddi* yordamchi so‘zlari bilan kelgan yuqoridagi misollar o‘xshatishning uzilgan turini hosil qilgan. Bunday o‘xshatishlarda o‘xshatilayotgan predmet va o‘xshatma belgi bir gap tarkibida, o‘xshatish etaloni esa boshqa gap tarkibida keladi. *Go‘yoki, xuddi* yordamchilari esa ularni bog‘lab, o‘xshovchi obrazni kuchaytirish va bo‘rttirishga xizmat qiladi.

Leksik vositalar ham o‘xshatishni yuzaga keltiruvchi elementlardan hisoblanadi. *Bilan barobar, barobar* so‘zlari o‘xshatish munosabatlarini parallel tenglashtirish ma‘nosi bilan chog‘ishtiradi [7; 65-b.]: **Ul jo‘rasi ham shuning bilan barobar** (“Malika ayyor”: 205); **Bu tulpor ham u tulporman barobar** (“Malika ayyor”: 187); **Ikkovi o‘t qo‘ydi devga barobar** (“Malika ayyor”: 206).

Bo‘lmoq fe‘li *-day/-dek* affikslari bilan kelganda o‘xshatish munosabati shu qo‘shimchalar bilan yuzaga chiqadi, *bo‘lmoq* so‘zi esa qo‘shimcha ma‘no beradi. *-day/-deksiz* o‘zi qo‘llangan o‘xshatishlarda esa asosiy vosita bo‘lib keladi. Bunday holatni dostonlarda bir marta uchratdik: **Makonim, mazgilim zindon bo‘libdi** (“Rustamxon”: 102).

Changal, bilak, boqish, surat, yurak leksik birliklari orqali subyekt etalonning xuddi shu tomonlariga o‘xshatiladi: **Qarchig‘ay changalli, yo‘lbars bilagim, / Urushga kirganda qoplon yuragim** (“Rustamxon”: 43); **Bir lochin boqishlim, qaydan bo‘lasan** (“Rustamxon”: 45); **O‘lik suratida bu bo‘lib yotgan** (“Rustamxon”: 126); **Maloyik suratli, gul yuzli dilbar** (“Malika ayyor”: 155).

Morfologik-leksik vositalar ham dostonlarda nisbatan kam uchraydi. “Malika ayyor” va “Rustamxon” dostonlarida bu elementlardan *-ga o‘xshamoq, -ga mengzamoq, -ga keladi, -ni qildi* kabilarning mavjudligi aniqlandi. Odatda, bir predmet-holat boshqasiga muayyan bir belgiga ko‘ra emas, balki butunicha, to‘lasicha, aynan o‘xshatilmoqchi bo‘lsa, o‘xshatish asosi bevosita ifodalanmaydi. Bunday hollarda o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi sifatida ham ko‘pincha *o‘xshamoq* fe‘lidan foydalaniladi [2; 65-b.]: **Qoshingni o‘xshatdim egilgan yoyga** (“Rustamxon”: 43); **Jasading o‘xshaydi bo‘z qarchig‘ayga** (“Rustamxon”: 43). Bir xildagi o‘xshatish ifodalarida *o‘xshamoq* fe‘li bilan unga sinonim bo‘lgan *mengzamoq* so‘zining o‘rinlari almashib kelgan: **Qoshingni mengzayman egilgan yoyga** (“Malika ayyor”: 75); **Jasading mengzadim bo‘z qarchig‘ayga** (“Malika ayyor”: 75).

Dostonlardan *-ga keladi, -ni qildi* kabi o‘xshatish hosil qiluvchi vositalar bilan yuzaga kelgan o‘xshatish tasvirlari ham aniqlandi: **Belida kamarlari tillodan, qaddi-jasadi Rustamga keladi** (“Rustamxon”: 134). Bu yerda qaddi-qomat Rustamning qaddi-qomatiga o‘xshatilmoqda. **Qildi shunda Alining savashini** (“Malika ayyor”: 210). Bu misolda savash Alinikiga o‘xshatilmoqda.

Ba‘zan o‘xshatishlar faqat o‘xshatiluvchi predmet va o‘xshovchi predmetdangina iborat bo‘ladi, vosita ishtirok etmaydi. Bunday o‘xshatishlar vositasiz o‘xshatishlar deyiladi. Masalan: **Gul tarzim sarg‘ayib senga qarayman** (“Rustamxon”: 22). Bu yerda *tarz gulga* o‘xshatilgan, ammo ular orasida hech qanday vosita qo‘llanmagan. *Gul tarzim* o‘xshatishning metaforik turi hisoblanadi. Bu tur ko‘proq she‘riyatda uchraydi. Nasrda esa sifatlashli, ya‘ni vositali o‘xshatish faolroq qo‘llanadi. Qo‘llanilishi jihatidan badiiy nasrda, asosan, vositali, she‘riyatda esa ko‘proq vositasiz o‘xshatishlar uchraydi [9; 261-b.].

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytish mumkinki, o‘xshatish konstruksiyasi to‘rt komponentni birlashtirgan badiiy tasvir vositasi bo‘lib, ularning qo‘llanilishi va o‘rinlashishi uslub, ohang va matn nuqtayi nazaridan u yoki bu tarzda o‘zgarib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Yoqubbekova M. Similes in Uzbek folk songs. — Tashkent: Fan, 2003. — 93 p.
2. Yo‘ldoshev M. Linguopoetics of literary text. — Tashkent: Fan, 2008. — 159 p.
3. Yo‘ldoshev M. The secrets of Cholpon’s language. — Tashkent: Ma‘naviyat, 2002. — 79 p.
4. Kononov A. N. Grammar of the modern Uzbek literary language. — Moscow–Leningrad, 1960. — 285 p.
5. Mahmudov N., Xudoyberganova D. Explanatory dictionary of similes in the Uzbek language. — Tashkent: Ma‘naviyat, 2013. — 318 p.
6. Mahmudov N. Similes as a product of figurative thinking // Uzbek Language and Literature. — Tashkent, 2011. — No. 3. — P. 19–24.
7. Mukarramov M. Simile in the Uzbek language. — Tashkent: Fan, 1976. — 88 p.
8. Nevelova S. L. Issues of poetics of ancient Indian epic: epithet and simile. — Moscow: Nauka, 1979. — 135 p.
9. Umurqulov B. The charm of literary prose. — Tashkent: Muharrir, 2021. — 299 p.
10. Xudoyberganova D. Semantic and stylistic features of simile constructions in the Uzbek language: Cand. philol. sci. diss. — Tashkent, 1989. — 119 p.
11. Qo‘ng‘urov R. Expressive means of the Uzbek language. — Tashkent: Fan, 1977. — 152 p.
12. Hotamov N., Sarimsoqov B. Russian-Uzbek explanatory dictionary of literary terms. — Tashkent: O‘qituvchi, 1979. — 366 p.